ONA TILI TA’LIMIDA MATN, MULTIMODAL MATNLAR USTIDA ISHLASH

Mirzoxidova Laylo Baxtiyorovna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat instituti
Boshlang‘ich ta’lim va filologiya fanlari metodikasi kafedrasi dotsenti
nohidabdurashidov2006@gmail.com
+998 91 519 71 53
https://doi.org/10.5281/zenodo.17828388

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tili ta’limida matn va multimodal matnlar ustida ishlashning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. O‘quvchilarda matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar va differensial yondashuvlar orqali takomillashtirish zarurligi ta’kidlangan. Multimodal matnlarning mohiyati, turlari, o‘quv jarayonidagi o‘rni va PISA o‘qish savodxonligi baholash tizimi bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada matn bilan ishlashning bosqichlari, samarali metodlar va baholash mezonlari keltirilgan. Multimodal yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy, ijodiy va analitik fikrlashini rivojlantirishda, raqamli savodxonlik hamda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi ilmiy asosda izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *matn, multimodal matn, o‘qish savodxonligi, ona tili ta’limi, interfaol metodlar, tahliliy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, raqamli savodxonlik, refleksiv tahlil.*

Работа с текстами и мультимодальными текстами в обучении родному языку

Мирзохидова Лайло Бахтиёровна,
Доцент кафедры методики начального образования и филологических дисциплин, Институт педагогического мастерства имени А.Авлони

Аннотация: *В данной статье освещены теоретические и практические основы работы с текстами и мультимодальными текстами в преподавании родного языка. Подчёркивается необходимость совершенствования компетенций учащихся в работе с текстом посредством современных образовательных технологий, интерактивных методов и дифференцированных подходов. Проанализированы сущность, типы и роль мультимодальных текстов в учебном процессе, а также их взаимосвязь с системой оценки читательской грамотности PISA. В статье также представлены основные этапы работы с текстом, эффективные методы и критерии оценивания. Мультимодальный подход рассматривается как важный фактор развития критического, творческого и аналитического мышления учащихся, повышения уровня цифровой грамотности и формирования компетенций XXI века.*

Ключевые слова: *текст, мультимодальный текст, читательская грамотность, преподавание родного языка, интерактивные методы, аналитическое мышление, коммуникативная компетенция, цифровая грамотность, рефлексивный анализ.*

Working with texts and multimodal texts in mother tongue education

Mirzokhidova Laylo Bakhtiyarovna,
Associate Professor, Department of Primary Education and Methodology of Philological Sciences, A.Avloni Institute of Pedagogical Mastery

Annotation: *This article highlights the theoretical and practical foundations of working with texts and multimodal texts in mother tongue education. It emphasizes the importance of improving students' text-processing competencies through modern educational technologies, interactive methods, and differentiated approaches. The essence, types, and role of multimodal texts in the learning process, as well as their close connection with the PISA reading literacy assessment system, are analyzed. The article also presents the main stages of working with texts, effective methods, and assessment criteria. The multimodal approach is scientifically explained as a crucial factor in developing students' critical, creative, and analytical thinking, enhancing digital literacy, and fostering 21st-century competencies.*

Keywords: *text, multimodal text, reading literacy, mother tongue education, interactive methods, analytical thinking, communicative competence, digital literacy, reflective analysis.*

Bugungi globallashuv davrida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘qiganini tahlil qila olishi va o‘z fikrini asoslab ifodalashi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Shu bois, "matn bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish – nafaqat til va adabiyot darslarining, balki umumta'lim jarayonining markaziy komponentiga aylanmoqda" [1;2;4].

Matn – bu shunchaki so‘zlar yig‘indisi emas, balki o‘quvchining tafakkuri, idroki va tahlil salohiyatini faollashtiruvchi vositadir. Matn bilan ishlash jarayoni orqali o‘quvchining nafaqat o‘qish va tushunish ko‘nikmalari rivojlanadi, balki tahlil, sintez, baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv malakalarga ega bo‘ladi.

Mazkur maqolada o‘quvchilarda matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqilgan. Unda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, differensial yondashuvlar hamda mustaqil o‘quv faoliyatini faollashtirish yo‘llari yoritilgan.

"Matn ustida ishlash ta'lim jarayonida o‘quvchi shaxsini faol subyekt sifatida shakllantirishga, uning tanqidiy fikrlashini, nutq madaniyatini va adabiy-estetik didini rivojlantirishga qaratilgan" [1;9]. Maqola o‘z mohiyatiga ko‘ra, milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogika yondashuvlarini uyg‘unlashtirgan holda, o‘quvchilarda matn bilan ishlash madaniyatini shakllantirishni, ularning tafakkurini chuqurlashtirishni va o‘qishdan zavq olish ko‘nikmalarini mustahkamlashni nazarda tutadi.

Matn – bu ma'lum bir **mazmun**, **g‘oya** yoki **axborotni** ifodalovchi, **mantiqan bog‘langan so‘z, gap va abzats**lardan tashkil topgan **nutqiy birlikdir**. U yozma yoki og‘zaki shaklda bo‘lishi mumkin, lekin har doim ma'lum bir **mavzu, maqsad va tuzilishga** ega bo‘ladi.

Matnning asosiy belgilar

• **Mazmuniy yaxlitlik** – matn bir butun fikrni ifodalaydi, undagi barcha gaplar bir mavzu atrofida birlashadi.

• **Mantiqiy izchillik** – fikrlar o‘zaro bog‘langan, ketma-ketlik saqlanadi.

• **Tuzilish** – matn odatda **kirish, asosiy qism va xulosa** qismlaridan iborat bo‘ladi.

• **Til birliklari uyg‘unligi** – so‘z, ibora, gap va abzatslar bir-biriga grammatik va ma'noviy jihatdan bog‘langan bo‘ladi.

• **Muallif pozitsiyasi** – har bir matn muallifning shaxsiy fikri, nuqtayi nazari yoki kayfiyatini ifodalaydi.

Matnning turlari

• **Axborot matn** – ma'lumot berishga qaratilgan (yangilik, maqola, hisobot).

• **Badiiy matn** – obrazlar orqali estetik ta’sir uyg‘otadi (she’r, hikoya, roman).

• **Ilmiy matn** – ilmiy tushuncha va dalillarga asoslangan (maqola, referat, dissertatsiya).

• **Rasmiy matn** – hujjatlar, arizalar, farmoyishlar va hokazolar.

• **Publitsistik matn** – ommaga murojaat qiluvchi, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi (maqola, chiqish, intervyu).

Matnning vazifasi

Matnning asosiy vazifasi – **fikrni ifodalash va uni o‘quvchiga aniq yetkazishdir**. U shuningdek:

• tafakkurni rivojlantiradi,

• til boyligini kengaytiradi,

• tahliliy fikrlashni o‘rgatadi,

• muloqot madaniyatini shakllantiradi.

Bugungi kunda ona tili darsliklarimizda multimodal matnlar ham o‘rin olgan. Bu xil matnlar turli intellektli o‘quvchilarni matnga e’tiborini tortish faqat matnni emas turli rasm, komiks, chizma, statistik ma’lumot, diagrammalarni o‘qib tushunish, tahlil qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirirsh maqsadida kiritilgan bo‘lib, PISA xalqaro baholash dasturi asosidagi topshiriqlarga tayyorlashni ham nazarda turadi [8;10].

Multimodal matnlar qanday matnlar?

Multimodal matn – bu bir nechta **kommunikativ vositalar** orqali ma’lumotni yetkazuvchi matn shaklidir. Bunday matnda **matn (so‘zlar)** bilan bir qatorda **tasvir, grafik, video, tovush, rang, belgi, dizayn** kabi boshqa ifoda vositalari ham muhim ma’no yuklaydi.

Multimodal matnning mohiyati

An’anaviy matnda ma’no asosan so‘z orqali ifodalanadi. Multimodal matnda esa ma’no **ko‘p qatlamli** bo‘ladi – u **ko‘rish (vizual), eshitish (audio), o‘qish (lingvistik)** va hatto **hissiy (emotsional)** tajriba orqali idrok etiladi.

Masalan:

• **Darslikdagi infografika** yoki **interaktiv slayd;**

• **Reklama roligi;**

• **Elektron dars (e-learning platformasi);**

• **Ijtimoiy tarmoqdagi post (matn + rasm + interfeys…..)** – bularning barchasi multimodal matn hisoblanadi.

Multimodal matnning asosiy turlari

Vizual-matnli – matn bilan birga rasm, jadval, diagramma, chizma qo‘llaniladi. *Masalan:* maqola ichidagi statistik jadval.

Audiovizual – tovush, musiqiy fon va video tasvir uyg‘unlashgan holat.

Masalan: ta’limiy videorolik.

Interaktiv – foydalanuvchi faol ishtirok etadigan matn shakli.

Masalan: elektron test, veb-sahifa, taqdimot).

Multimodal matnning o‘quv jarayonidagi ahamiyati

• O‘quvchilarda **tanqidiy va tahliliy fikrlash**ni rivojlantiradi;

• **Axborotni turli manbalardan** qabul qilishni o‘rgatadi;

• **Ko‘rish, eshitish va o‘qish** orqali bilimni mustahkamlaydi;

• Ta’lim jarayonini **qiziqarli, interaktiv va samarali** qiladi.

“Multimodal yondashuv bugungi kunda XXI asr kompetensiyalari – axborot savodxonligi, media madaniyat, ijodiy fikrlash va kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi” [4;7;9]. Shuning uchun ham bugun ona tili darsliklarimizda asosan multimodal matn shakllarini ko‘p uchratamiz.

Multimodal matn bilan ishlash usullari

Kuzatish va tahlil – rasm, dizayn, rang, shrift, ovozlarni tahlil qilish.

Taqqoslash – matn va boshqa rasm, jadval, sxema, komikslar o‘rtasidagi ma’no uyg‘unligini aniqlash.

Yaratish – o‘quvchilarning o‘zlari mavzuga mos multimodal matn (taqdimot, video, gazeta) yaratishi.

Baholash – multimodal matnning kommunikativ samaradorligini baholash.

Multimodal matnlarning PISA o'qish savodxonligi bilan bog'liqligi

PISA (Programme for International Student Assessment) – bu o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha **hayotiy ko'nikmalarini** baholovchi xalqaro dasturdir. Unda "**o'qish savodxonligi**" quyidagicha ta'riflanadi:

"O'qish savodxonligi – bu matnni tushunish, tahlil qilish, baholash va uni urli maqsadlarda samarali qo'llay olish qobiliyatidir". Ya'ni, PISA o'qish savodxonligi o'quvchining **matnni faqat o'qish** emas, balki **unda yashiringan ma'no va axborotni anglash, solishtirish, dalillash va xulosa chiqarish** ko'nikmalarini baholaydi" [4].

Multimodal matnlar – zamonaviy o'qish muhitining ajralmas qismi

Bugungi kunda inson o'qiydigan matnlarning katta qismi **multimodal shaklda** taqdim etiladi:

- internet maqolalari
- reklama bannerlari
- infografikalar
- interaktiv slaydlar
- videoroliklar
- ijtimoiy tarmoq postlari va h.k.

Shu sababli PISA testlarida ham an'anaviy yozma matnlardan tashqari **multimodal matnlar** – ya'ni **matn, rasm, jadval, grafik, diagramma, havola, interfeys** elementlari aralashgan materiallar kiritiladi.

O'zbekiston ta'limida multimodal yondashuvning ahamiyati

O'zbekiston PISA dasturida faol ishtirok etish va yuqori natijalarga erishish, o'qish savodxonligini oshirishda **multimodal matnlar bilan ishlash**ni o'quv jarayoniga kiritishni boshladi. Buni ona tili darsliklarida ham ko'rishimiz munkin. Darslikdagi multimodal matnlar asosida:

- O'quvchilarni **axborot oqimi**da yo'naltirishni o'rgatadi;
- **Kritik fikrlash** va **axborot tahlili** ko'nikmalarini shakllantiradi;
- **Raqamli savodxonlik** va **media madaniyat**ni rivojlantiradi;
- Har xil **taqdimot, infografika, elektron darslik**lar bilan ishlash malakasini mustahkamlaydi.

Demak, multimodal matnlar – bu o'quvchilarning PISA o'qish savodxonligi baholash mezonlariga mos ravishda **axborotni idrok etish, tahlil qilish, baholash va qo'llay olish** qobiliyatini rivojlantiruvchi vositadir.



1-rasm. Multimodal o'qish savodxonligi shakllari.

Ular orqali o‘quvchi nafaqat tilni, balki **axborotni turli shakllarda anglash**ni o‘rganadi, bu esa **XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishning** eng samarali yo‘llaridan biridir. Quyida multimodal matnlarga namunalar keltiramiz:

1-jadval

PISA o‘qish savodxonligi ko‘nikmalari


PISA o‘qish savodxonligi komponenti	Multimodal matn orqali rivojlanadigan ko‘nikma
Axborotni aniqlash	Jadval, infografika va diagrammalardan kerakli ma’lumotni topish
Tushunish va talqin	Matn va rasm o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni anglash
Baholash va mulohaza yuritish	Turli manbalardan kelgan axborotni taqqoslab, ishonchliligini baholash
Qo‘llay olish	O‘qilgan multimodal ma’lumotni kundalik hayotda amalda ishlatish (masalan, yo‘l xaritasini tushunish, onlayn ko‘rsatmadan foydalanish)

1. Infografika

Tavsif: Matn + rasm + raqamlar + belgilar birlashgan axborot ko‘rinishi.

Maqsad: Ma’lumotni qisqa, aniq va vizual tarzda yetkazish.

Namuna: “Orol fojiasi” infografikasi – xarita, suv sathi grafigi va qisqa faktlar bilan.



2-rasm. “Orol fojiasi” matni infografik ma’lumot.

2. Poster (Plakat)


Tavsif: Matn, rasm va dizayn elementlari birlashib, auditoriyani ruhlantiruvchi yoki ogohlantiruvchi mazmun beradi.

Maqsad: Axborot tarqatish yoki hissiy ta’sir ko‘rsatish.

Namuna: “Tabiatni asra!” yoki “Kitob – inson do‘sti” mavzusida rasm va shiorli poster.



3-rasm. “Tabiatni asra” posteri.



4-rasm. “Kitob - inson do‘sti” posteri.

3. Reklama (Advertisement)

Tavsif: Qisqa slogan, tasvir, va hissiy chaqiriq mavjud.

Maqsad: Mahsulot, g‘oya yoki xatti-harakatni targ‘ib qilish.

Namuna: "Suvni tejang!" degan yozuv ustida tomchilab tushayotgan suv krani rasmi.



5-rasm. "Suvni tejang" posteri.

4. Video yoki Slayd-prezentatsiya

Tavsif: Rasm, ovoz, matn va animatsiyalar uyg'unligi.

Maqsad: Turli hissiy ta'sirlar orqali ta'sir o'tkazish.

Namuna: "Zamonaviy biznesning qadimiy ildizlari" nomli slaydlarda matn, audio va fotosuratlar uyg'unlashgan videorolik.



6-rasm. "Zamonaviy biznesning qadimiy ildizlari" nomli audio va fotosuratlar uyg'unlashgan videorolik.

5. Komiks (Comic Strip)

Tavsif: Ketma-ket rasm kadrlari orqali hikoya aytiladi; matn pufakchalarda joylashadi.

Maqsad: Hikoya yoki g'oyani sodda va kulgili tarzda tushuntirish.

Namuna: "Halollik" mavzusida bola va do'konchi o'rtasidagi kichik dialogli rasmli komiks.



7-rasm. "Halollik" mavzusida bola va do'konchi o'rtasidagi kichik dialogli rasmli komiks.

6. Interaktiv media matn

Tavsif: Havolalar, QR-kodlar, audio va video o'zaro bog'langan matn.

Maqsad: Foydalanuvchini faol ishtirok etishga jalb qilish.

Namuna: "Buyuk mutafakkirlar izidan" – har bir rasmga bosganda biografiya yoki audio chiqadi.



8-rasm. "Buyuk mutafakkirlar izidan" – KR kodli ma'lumotlar.

Matn bilan ishlashning asosiy bosqichlari

O'quvchilarda matn bilan ishlash malakasini shakllantirishda quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratish lozim:

1. Tushunishga yo'naltirilgan o'qish bosqichi.

Bu bosqichda o‘quvchi matnni birlamchi idrok etadi, uning umumiy mazmuni bilan tanishadi. O‘qituvchi bu jarayonda **tushunilishi qiyin so‘zlar, asosiy g‘oyalar, savol-javob** orqali o‘quvchini matnga jalb etadi.

Masalan: “Matnda asosiy muammo nimada?”, “Muallif nuqtayi nazari qanday?” kabi savollar tahliliy fikrlashni faollashtiradi.

2. Tahlil va tuzilmani ajratish bosqichi.

O‘quvchi matnning **tarkibiy qismlari, g‘oyaviy yo‘nalishi, sabab-oqibat aloqalari**ni tahlil qiladi. Bu jarayonda grafik organayzerlar (Klaster, Venn diagrammasi, Konseptual xarita) dan foydalanish samarali hisoblanadi.

3. Ijodiy qayta ishlash bosqichi.

O‘quvchi matndan olingan axborotni **shaxsiy tajriba, his-tuyg‘u va fikr** bilan uyg‘unlashtiradi. Bu bosqichda esse yozish, matnga sarlavha qo‘yish, personajlar nuqtayi nazarlarini tahlil qilish kabi topshiriqlar beriladi.

Shuningdek, o‘quvchilarni **muqobil yakun** yozish, “agar men muallif o‘rnida bo‘lganimda...” kabi ijodiy mashqlar orqali mustaqil fikrlashga yo‘naltirish mumkin (bugungi yangi avlod adabiyot darsliklarida shunday topshiriqlar o‘z ifodasini topgan).

Matn bilan ishlashni rivojlantiruvchi metod va texnologiyalar

O‘quvchilarda matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. “INSERT” texnologiyasi

Bu texnologiya matnni o‘qish jarayonida belgilar (√, –, +, ?) orqali o‘quvchining fikrlash jarayonini kuzatish imkonini beradi. Natijada o‘quvchi:

- ilgari bilganlarini (√),
- yangi ma’lumotlarni (+),
- tushunarsiz joylarni (?),
- qarama-qarshi fikrlarni (–) belgilar asosida belgilaydi.

Bu usul o‘quvchini faol o‘qish subyekti sifatida shakllantiradi va tahliliy o‘qish ko‘nikmasini rivojlantiradi .

2. Klaster (tushunchalar xaritasi) usuli

Matnning asosiy g‘oyasini tahlil qilish va uni vizual tarzda tuzishda qo‘llaniladi. O‘quvchi markaziy g‘oyadan chiqib, bog‘liq fikrlarni tarmoqlantiradi, bu esa mantiqiy bog‘lanishlarni anglashni yengillashtiradi.

3. “6 savol” ya’ni, Kim?, Nima?, qachon? Qayerda?, Nimaga, Qanday? tahlil modeli

Bu metod matn mazmunini chuqur tushunish uchun 6 ta savol asosida ishlaydi.

Masalan: *“Kim?”, “Nima sodir bo‘ldi?”, “Qachon?”, “Qayerda?”, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”*

Natijada, o‘quvchi matn mazmunini mantiqiy izchillikda anglab, xulosa chiqarishga o‘rganadi.

4. Refleksiv tahlil (fikr-mulohaza yozuvi)

O‘quvchi o‘qilgan matn yuzasidan shaxsiy his-tuyg‘u, mulohaza va o‘z nuqtayi nazarini yozma tarzda ifodalaydi. Bu usul o‘quvchining tafakkur mustaqilligini va muloqot madaniyatini, yozma nutqini rivojlantiradi.

O‘quvchilarda matn bilan ishlashni baholash mezonlari

Matn bilan ishlash ko‘nikmalarini baholashda quyidagi mezonlar e’tiborga olinadi:

2-jadval

Baholash mezonlari

№	Baholash mezoni	Tavsif
1	**Mazmunni tushunish**	Asosiy g‘oyani aniqlash, axborot va dalilarni ajrata olish
2	**Tahlil qilish**	Sabab-oqibat aloqalarini izohlash, muallif nuqtayi-nazarini aniqlash
3	**Ijodkorlik**	Matndan yangi g‘oya chiqarish, muqobil yakun taklif qilish
4	**Fikrni ifodalash**	O‘z fikrini mantiqan, grammatik to‘g‘ri ifoda etish
5	**Mustaqillik**	O‘qituvchi yordamisiz matnni tahlil qilish qobiliyati

Ona tili fanini o‘qitish jarayonida **matn ustida ishlash** tilni o‘rganishning markaziy metodik yo‘nalishi hisoblanadi. Chunki til hodisalarini matn doirasida o‘rganish o‘quvchilarga til birliklarining haqiqiy kommunikativ vazifasini, ularning mazmun va shakl jihatidan bog‘liqligini chuqur anglash imkonini beradi [1;6].

Matn ustida ishlash nafaqat grammatik va leksik ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki o‘quvchining **fikrlash, tushunish, tahlil qilish, muloqot qilish** hamda **ijodiy yondashuv** malakalarini rivojlantiradi. Shu bois, bu jarayon **til ta'limining asosiy komponenti** sifatida e'tirof etiladi.

Ona tili ta'limida matn yaratish va matn ustida ishlash usullari xilma-xildir. Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

• *Berilgan matndan o‘rganiladigan mavzuga oid so‘zlarni ajratish, ularni so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlash, so‘z yasovchi, shakl yasovchi qo‘shimchalarni guruhlash;*

• *Harflardan bo‘g‘in, bo‘g‘inlardan so‘z, so‘zdan so‘z birikmalari, so‘z birikmalaridan sodda gaplar tuzish;*

• *Matndagi sodda gaplardan qo‘shma gaplar hosil qilish, qo‘shma gaplarni soddalashtirish;*

• *Ajratilgan sodda gaplarni sintaktik tahlil qilish;*

• *She'riy yo‘l bilan yozilgan asarlarni nasriy yo‘l bilan gapirib berish;*

• *Matndagi qo‘shma gaplarni ajratish, turlarini aniqlash.*

O‘quvchilarda matn ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilinadigan tayyor matnlar 5-11-sinflar uchun ona tili o‘quv dasturi talabi asosida tanlanadi. Matnning turini, qaysi uslubga xosligini aniqlash, matndagi tinish belgilarini to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida o‘quvchilar matn ustida ishlash va matn yaratish jarayonining o‘zaro aloqadorlikka erishish, gazeta, jurnal, badiiy va ilmiy adabiyot manbalari, kompyuter, internet tizimi, saqlanayotgan axborotlardan mavzuga oid ma'lumotlardan foydalanishga odatlantirish kerak. Matnni imloviy, uslubiy nuqsonlarini topish, ularni mustaqil bartaraf etishni o‘rganish kerak. O‘quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish umumta'lim maktablari ona tili darslarining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsad sari eltadigan usullar sirasiga badiiy asarlardan olingan ayrim gaplar, kichik parchalar ustida olib boriladigan ishlar ham kiradi. Bunday misollar bilan ishlash metodikasi esa qator o‘ziga xosliklarga ega. Bu o‘ziga xoslik bir jihatdan ularni idrok etish bilan bog‘liq.

Matn bilan ishlash jarayonining **didaktik asoslari** quyidagilardan iborat:

• o‘quvchilarning faolligini oshirish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish;

• nazariy bilimni amaliy nutqiy faoliyat bilan bog‘lash;

• muloqot (kommunikativ) ko‘nikmasini shakllantirish;

• o‘quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan, matn ustida ishlash:

• o‘quvchining e'tibor, xotira, idrok va mantiqiy fikrlash jarayonlarini faollashtiradi;

• til birliklarini ongli o‘zlashtirishga yordam beradi;

• nutqiy motivatsiyani shakllantiradi.

Matn ustida ishlashning maqsad va vazifalari

Ona tili darslarida matn ustida ishlash quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

• **Tushunish** – o‘quvchilarda matn mazmunini ongli qabul qilish va tahlil qilish malakasini shakllantirish.

• **Til tizimini o‘rganish** – matn orqali leksik, grammatik, fonetik birliklarning o‘zaro munosabatini amalda ko‘rsatish;

• **Ijodiy yondashuv** – o‘quvchini matndan ilhomlanib mustaqil nutqiy faoliyatga undash;

• **Nutq madaniyati** – o‘quvchilarda adabiy til me’yorlariga rioya etish, fikrni mantiqan izchil ifodalash, uslubiy jihatdan to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Matn ustida ishlashning bosqichlari va metodlari

1. Tayyorgarlik bosqichi.

Bu bosqichda o‘quvchilarning e’tiborini matnga yo‘naltirish, ularni mavzuga ruhiy va aqliy tayyorlash amalga oshiriladi.

Metodlar: suhbat, evristik savollar, assotsiativ tahlil, leksik tayyorgarlik, konsept xarita.

2. Tahlil bosqichi.

O‘quvchi matnni o‘qib, undagi asosiy g‘oyani, kompozitsion tuzilmani, til birliklarini aniqlaydi.

Metodlar: mantiqiy tahlil, semantik tahlil, qiyosiy tahlil, matn bo‘yicha savol-javob, fikr xaritasi tuzish.

3. Ijodiy ishlash bosqichi.

Bu bosqichda o‘quvchi matn asosida yangi nutqiy mahsulot (matn) yaratadi.

Metodlar: qayta hikoyalash, sarlavha qo‘yish, matnga muqobil yakun yozish, insho, bahs-munozara, rol o‘ynash, dramatizatsiya [3;5;7].

Matn ustida ishlashda zamonaviy metodik yondashuvlar

a) multimodal matnlar bilan ishlash

Hozirgi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning axborot savodxonligini oshirish maqsadida **multimodal matnlar** (matn + rasm + video + infografika)dan foydalanish muhim.

Bu PISA talablari asosidagi **o‘qish savodxonligi kompetensiyasini** rivojlantiradi.

b) klaster, konsept xarita va grafik organayzerlar

Matnning mazmuniy tuzilishini vizual tarzda aks ettirish o‘quvchining:

• asosiy g‘oyani ajratish;

• sabab-oqibat aloqalarini ko‘rish;

• fikrni mantiqiy tuzish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

c) Differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshiriqlar darajalarga bo‘linadi:

• **reproduktiv (takroriy)** – matnni tushunish va qayta bayon qilish,

• **produktv (ijodiy)** – yangi matn yaratish, tahliliy fikr bildirishi.

Matn ustida ishlashda o‘qituvchining roli

O‘qituvchi bu jarayonda **yo‘naltiruvchi, tashkilotchi va motivator** sifatida ishtirok etadi.

U quyidagi vazifalarni bajaradi:

• o‘quvchilarning diqqatini matnning g‘oyaviy va ma’naviy jihatlariga qaratish;

• o‘quvchilarda mustaqil tahlil qilish va ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirish;

• tahlil jarayonini interfaol shaklda tashkil etish (guruh ishlari, klaster, bahs-munozara, “insert” jadvali va boshqalar).

Amaliy tavsiyalar

• Har bir darsda kamida bitta **matn asosida tahliliy topshiriq** tashkil etish.

• Matnni faqat o‘qish emas, **tuzish, tahrir qilish, qayta yozish** topshiriqlarini ham berish.

• O‘quvchilarga matn ustida ishlashni **bosqichma-bosqich model** tarzida ko‘rsatish.

• O‘quvchilarning ish natijasini **refleksiya** orqali tahlil qilish (o‘zi o‘rganganini baholash).

Matn ustida ishlash – ona tili ta’limining asosiy komponenti bo‘lib, o‘quvchining **lingvistik, kognitiv va kommunikativ** kompetensiyalarini birgalikda rivojlantiradi. Zamonaviy yondashuvlarda matn nafaqat o‘qish materiali,

balki **fikrlash, tahlil va ijodiy yozuv** faoliyatining markaziga aylanadi.

O‘qituvchi esa bu jarayonda yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi sifatida o‘quvchining mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etadi.

Shunday qilib, matn ustida ishlashni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi:

• o‘quvchilarda **nutq madaniyatini** shakllantiradi;

• **mantiqiy tafakkurni** rivojlantiradi;

• **milliy qadriyatlar ruhida fikrlash**ga o‘rgatadi.

Shu bilan birga, o‘quvchi matndan faqat ma'lumot emas, balki **mazmun, ma'no va fikr shakllanish jarayonini** anglay boshlaydi – bu esa ta'limning haqiqiy maqsadidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Utanova V. Ona tili darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “INNOVATIVE APPROACHES IN STUDY OF THE LANGUAGE, LITERATURE, TRANSLATION, TOURISM AND CULTURAL HERITAGE ON THE SILK ROAD”, MAY 3-4, 2024. – 319-322 b.

2. Karimova M. Matn lingvistikasi va ta'lim jarayoni. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – B. 117.

3. Mehmonov M.H., Abduraximova Z.A. Interfaol metodlar va ularning ta'lim jarayonidagi mohiyati// Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi. 2023, 1-jild, 6-son. 16-18 b.

4. Jalolova D., Niyozova M. “PISA baholash tizimida o‘qish savodxonligi kompetensiyasi”. Ta'lim texnologiyalari jurnali, 2023. 5(2), 34-40 b.

5. Обиджонова Р. Матн устида ишлаш: матнни босқичма-босқич ўргатиш ва уни ҳаёт билан боғлаш // Tadqiqotlar.uz. – 2022, 42(1). – 133-137 b.

6. Қўчқарова С. Бошланғич синф ўқувчиларининг нутқий компетенциясини матн орқали ривожлантириш // O‘zMU xabarlari (Acta NUUz) 2024, №1. –119-121 b.

7. Saidnasimova Z. Matn yaratish va matn ustida ishlashning didaktik prinsiplari. “Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar” nomli 7-son ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 19-fevral 2022. – 53-58 b.

8. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2018. – B. 204.

9. Rahimboyeva D. Ona tili ta'limida matn ustida ishlashning didaktik tamoyillari. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDYISSN 2992-9024 (online) 2024, №6. 61-74 b.

10. OECD. *(2018). PISA 2018* Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. Paris: OECD Publishing. – B. 304.